**Pirnazar DAVRONOV,**
**Fotima DAVRONOVA**

# Jom qishlog'ini zamonaviy agrosanoat majmualari asosida rivojlantirish konsepsiyasi

**Toshkent**
**Qamar-media**

**UO'K 338.436.33:63**
**D13**

P. Davronov, F. Davronova **"Jom qishlog'ini zamonaviy agrosanoat majmualari asosida rivojlantirish konsepsiyasi"** – / Тошкент: «Qamar media» nashriyoti 2024. 64 b.

*Risolada Jom qishlog'ini zamonaviy agrosanoat majmualari asosida rivojlantirish konsepsiyasi bayon etilgan.*

*Konsepsiyada, Jom qishlog'ining hozirgi holat rejasi, Jom qishlog'ining hozirgi holat ko'rinishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish infrastrukturasi, Jom qishlog'i bosh rejasining rivojlanish taklif loyihasi, istirohat bog'larni rivojlantirish konsepsiyasi, ichimlik va sug'orish suvlari bilan ta'minlash taklif loyihasi, o'rmon xo'jaligi hududini rivojlantirish taklif loyihasi, turizimni rivojlantirish taklif loyihasi, Jom qishlog'idagi arxeologik hududlar, Jom qishlog'ida turistik rekreasion hududlarining rivojlanishi, agrosanoat majmualarining bosh rejasi va boshqa taklif loyihalari ishlab chiqilgan.*

**ISBN 978-9943-9207-3-6**

© P. Davronov.
F. Davronova.
© **«Qamar media»**, 2024 y.

***Jom - kitoblarga sig'maydigan katta iste'dodlarga, olimlarga, ulug' fazilatli insonlarga beshikdir.***

***Bu muazzam qishloq katta yo'l bo'yida farzandlarini nurli manzillarga kuzatayotgan mushtiparu munis onaga o'xshaydi.***

***Gulshan Shermatova, Nurobod tumani hokimi o'rinbosari***

## SO'Z BOSHI

Risolada Jom qishlog'i tarixiga doir qisqa ma'lumotlardan so'ng, 2013-yildan boshlab qishloqni obodonlashtirish, aholining iqtisodiy va ma'naviy-marifiy turmush tarzini rivojlanishga qaratilgan keng qamrovli ishlar va ularni amalga oshirishda jonbozlik ko'rsatgan insonlar to'g'risida bayon qilingan.

Suv tanqisligi ro'y berayotgan hozirgi davrda, Jomda kelajakda barpo etilishi mumkin bo'lgan to'g'onlar o'rinlari ehtimoli keltirilgan.

Risolada Jom qishlog'ini zamonaviy agrosanoat majmualari asosida rivojlantirish konsepsiyasini yoritishga asosiy e'tibor qaratilgan.

Konsepsiyada, Jom qishlog'ining hozirgi holat rejasi, Jom qishlog'ining hozirgi holat ko'rinishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish infrastrukturasi, Jom qishlog'i bosh rejasining rivojlanish taklif loyihasi, istirohat bog'larni rivojlantirish konsepsiyasi, ichimlik va sug'orish suvlari bilan ta'minlash taklif loyihasi, o'rmon xo'jaligi hududini rivojlantirish taklif loyihasi, turizimni rivojlantirish taklif loyihasi, Jom qishlog'idagi arxeologik hududlar, Jom qishlog'ida turistik rekreasion hududlarining rivojlanishi, agrosanoat majmualarining bosh rejasi va boshqa taklif loyihalari ishlab chiqilgan.

# INTRODUCTION

After brief information about the history of the village of Jom, the pamphlet describes comprehensive works aimed at beautifying the village, developing the economic and spiritual-educational lifestyle of the population, and the people who have shown enthusiasm in their implementation since 2013year stated about.

In the current period of water shortage, possible future dam sites in Jom have been mentioned.

The brochure focuses on the concept of development of Jom village on the basis of modern agro-industrial complexes.

In concept, Jom Village Current Status Plan, Jom Village Current Status View, Socio-Economic Development Infrastructure, Development Proposal Draft of Jom Village Master Plan, Recreation Park Development Concept, Drinking and Irrigation Water proposal project for supply, proposal project for development of forestry area, proposal project for tourism development, archaeological areas in the village of Jom, development of tourist recreation areas in the village of Jom, master plan of agro-industrial complexes and other proposal projects have been developed.

# ПРЕДИСЛОВИЕ

В брошюре после краткого обзора истории деревни Джом, начиная с 2013 года, рассказывается об обширной работе по благоустройству деревни, развитию экономического и духовно-просветительского образа жизни жителей и людей, которые проявили живой интерес к их реализации.

В нынешнюю эпоху, когда наблюдается нехватка воды, Джом предлагает возможность строительства плотин, которые могут быть построены в будущем.

В брошюре основное внимание уделяется освещению концепции развития поселка Джом на базе современных агропромышленных комплексов.

Концепция включает в себя текущий план состояния деревни Джом, текущий вид на деревню Джом, инфраструктуру социально-экономического развития, проект предложения по развитию генерального плана деревни Джом, концепцию развития парков, проект предложения по обеспечению питьевой и оросительной водой, проект предложения по развитию лесных территорий, проект предложения по развитию туризма, археологические памятники в деревне Джом, развитие туристско-рекреационных зон в поселке, разработан Генеральный план агропромышленных комплексов и другие проекты предложений.

# Jom qishlog‘i taraqqiyoti  zarvaraqlari

Risola boshida Ona Jom qishlog‘ini va uning odamlarini ulug‘lovchi  gaplarni, sariq tuproq elimizning Sozag‘on qishlog‘i farzandi Gulshan Shermatova bejizga aytmagan. Jom qishlog‘i ko‘hna tarix zanjirining mustahkam xalqalaridan biri bo‘lib, arxeolog olimlarning e‘tirof etishlaricha, bu gushada 24 000 yildan ortiq muddatdan buyon insonlar umrguzaronlik qilishadi.

Bu qishloq qadimdan Toshkent-Samarqand-Jom-Qabul-Qandaxor hamda Buxoro-Tim-Jom-Shahrisabz Buyuk ipak yo‘lining chorraxasida joylashgan bo‘lib, surushtirilsa, Jom qishloqda, yer yuzidagi istalgan darajadagi odamlar toifasidan topiladi. Jom eli uzoq tarix silsilasida juda ko‘p yaxshi-yomon kunlarni boshidan kechirgan. Birgina ikkinchi jahon urushida 372 nafar qaxramon o‘g‘lonlari qatnashib, ulardan 228 nafari jangohlarda halok bo‘lishgan.

2013-2017-yillarda Jom elining obodligi, farovon turmush tarzi uchun olib borilgan mashaqqatli, serg‘alva mehnatlar, yelib-yugurishlar evaziga, davlat byudjetidan 22,5 milliard so‘m mablag‘ olinishiga erishildi. Bu borada Eshturdi Rahimov, Tursunmurod Norbekov, Abdifattox Tursunov,  Ismoil Jabborov, Turamurod Xolbozorov, Turum Xo‘jaqulov, Qudrat Xushatov, Axmat Qurbonov, Po‘lat Zayniyev, Qosim Avazov, Fayzulla Lutfullayevв, O‘rol Mavlonov, Azim Qosimov, Pirnazar Davronovlar jonbozlik ko‘rsatishgan.

Davlat byudjetidan olingan mablag‘lar evaziga G‘ishtband suv ombori, 4 ta ko‘prik, 1 ta yangi maktab, “Aholi dam olish maskani”, “Gaz ballonlarini saqlash va tarqatish servis markazi”, 35/10 kVL Jom elektr nimstansiyasi, Jom MFY binosi, Jom to‘yxonasi, 4,4 km asfalt yo‘li qurildi.

2017-yil 13-avgust soat 11.00 da Jom qishlog‘imizni yanada rivojlantirish g‘oyalari asosida, Samarqand shahridagi, doimiy maslahatlashiladigan “Yagona” choyxonasida, Eshturdi Rahimov va Tursunmurod Norbekovlar bilan birgalikdagi navbatdagi uchrashuvimiz bo‘lib o‘tdi.

E.Rahimov hozirda G‘ishtband va Anjirli suv omborlari bo‘yichi tegishli hujjatlarni to‘playotganini ma’lum qildi.

T.Norbekov suhbat asnosida E.Rahimovga bir g‘oyamiz bor, faqat bajarsangiz aytamiz dedi. Chunki, E.Rahimovdan biror ishni bajarishga roziligini olish oson emas. Chunki u har qanday masalaga yuzaki emas, chuqur va keng tahlillar asosida yondashadi.

Ikkoving meni o‘yinchoqqa aylantirdilaring. Bolalarning jo‘ja ko‘rinishidagi o‘yinchog‘i bor, uning orqasiga kaliti tiqilib, burab, qo‘yib yuborilsa, yugurib ketadi. Meni shu jo‘jaga aylantirdilaring. Mening yelib-yugurishlarimdan el ham, farzandlarim ham bezor bo‘lishgan, - deb turib oladi. Haqiqatan shunday, keksargan insonning el uchun piyoda-sarson yurishlaridan, idoralarda soatlab, haftalab kutushlaridan, og‘ziga kuchi yetmagan ayrim qishloqdoshlarning g‘arazli yoki ongsiz fisqu fasodlaridan Eshturdi Rahimov va uning safdoshlari xafa bo‘lishar, farzandlari esa g‘azablanib, ota shu ishingizni to‘xtating deyishar edi. Biroq, Eshturdi Rahimov to‘xtamadi. Uning sa’y-harakatlarisiz, bizlarning g‘oyalarimiz g‘oyaligicha qolib ketgan, Jomdagi keng qamrovli bunyodkorlik ishlari amalga oshmagan bo‘lar edi. Jamiyatda shaxsning roli mavjudligi to‘g‘risidagi g‘oya, usbu misolda ham o‘z isbotini topib turibdi.

Bizlar amallab E.Rahimovni yangi ishga chorladik. T.Norbekov Jom qishlog‘ini kelajakda rejali rivojlantirish uchun zamon talablariga javob beradigan loyiha yaratish zarurligini aytdi.

Buning uchun men nima qilishimiz kerak,-dedi E.Rahimov.

Respublika miqyosida 2018-2030-yillarda shahar, qishloq, aholi yashash joylarini tubdan o‘zgartirish bo‘yicha davlat dasturi shakllanayotgani, shu sababli Jom qishlog‘ini davr talabi asosida rivojlantirish maqsadida, loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash bo‘yicha Nurobod tumani hokimidan, Samarqand arxitektura-qurilish institute rektori nomiga xat olish kerakligi aytildi.

2017 yil 12-sentabrda E.Rahimov Nurobod tumani hokimi F.Zoirovga 22 mingdan ortiq aholi istiqomat quilayotgan Jom qishlog‘i aholisini ish va ichimlik suv bilan ta’minlashga yo‘naltirilgan taklif xat orqali chiqish qildi. F.Zoirov ushbu murojaat asosida 2017-yil 12-sentabrda Samarqand arxitektura-qurilish instituti rektori, professor S.I.Axmedov nomiga quyidagi mazmundagi №01-2/5-654 son xatni berdi. Bu xat 14 - sentabr 2017-yilda Samarqand arxitektura-qurilish instituti rektori, professor S.I.Axmedovga taqdim etildi:

Nurobod tuman hokimligi Siz rahbarlik qilayotgan institut talabalar jamoasi tomonidan tumanimizning Jom qishlog‘i misolida (agrosanoat komplekslari asosida qishloqlarni rivojlantirish yo‘nalishi mavzusida) qilinayotgan ilmiy va diplom loyihalarini qishloq hududida joyiga chiqqan holda muhokama, himoya qilishga rozilik beradi hamda bu tadbirlarni amalga oshirish bilan bog‘loq tashkiliy masalalarni o‘z zimmasiga oladi va tadbir o‘tkazish bo‘yicha qo‘shimcha ravishda kelishiladi.

Samarqand arxitektura-qurilish instituti rektori, professor S.I.Axmedovning buyrug‘iga asosan Jom qishlog‘ida loyiha ishlarini olib borish guruhi tashkil etildi.

Guruh rahbari: Avazov Raximjon Shamsievich-Samarqand arxitektura-qurilish universiteti dotsenti, Yodgorliklar va diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro kengash a’zosi, “Turon” Fanlar akademiyasining faxriy akademigi, Sa-

marqand viloyati Turon Fanlar akademiyasi “Tarixiy-madaniy va nomoddiy merosni asrash jamg‘armasi” direktori.

Guruh a’zolari: Xidirov Muxsin - Samarqand arxitektura-qurilish universiteti dotsenti.

Xudoyarova Mavlyuda Baxrievna - Samarqand arxitektura-qurilish universiteti dotsenti.

Diplomantlar 501-QHALTE talabalari: D.Normatov, A.Narzullayev, F.Ro‘zimurodov, G.Qoldoshova, M.Maxkamova, M.Mardiyeva.

Guruh faoliyatining natijador bo‘lishidagi barcha yumushlar, Jomda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarning faol ishtirokchisi bo‘lgan, Jom elning fidoyi o‘g‘loni, dotsent Tursunmurod Norbekov tomonidan, 2017-yilning sentabr oyidan 2018-yilning fevral oyiga qadar amalga oshirildi.

Usbu 6 oy muddatda, Samarqand arxitektura-qurilish institutining 3 nafar olimlari va 6 nafar talabalari birgalikda “Samarqand viloyat Nurobod tuman Jom qishlog‘ini zamonaviy agrosanoat majmualari asosida rivojlantirish konsepsiyasi” mavzusida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishdi. Natijada, Jom qishlog‘ining hozirgi holat rejasi, Jom qishlog‘ining hozirgi holat ko‘rinishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish infrastrukturasi, Jom qishlog‘i bosh rejasining rivojlanish taklif loyihasi, istirohat bog‘larni rivojlantirish konsepsiyasi, ichimlik va sug‘orish suvlari bilan ta’minlash taklif loyihasi, o‘rmon xo‘jaligi hududini rivojlantirish taklif loyihasi, turizmni rivojlantirish taklif loyihasi, Jom qishlog‘idagi arxeologik hududlar, Jom qishlog‘ida turistik rekreatsion hududlarining rivojlanishi, agrosanoat majmualarining bosh rejasi va boshqa taklif loyihalari ishlab chiqildi.

Loyiha 2018-yil 2-fevralda Jom qishlog‘ida joylashgan Kasb hunar kolleji majlislar zalida Jom qishlog‘ini zamonaviy agro-

sanoat majmualar konsepsiyasi asosida rivojlantirish tadbiri bo‘ldi.

Tadbirda Samarqand arxitektura-qurilish instituti vakillari, Nurobod tumani 2-sektor boshlig‘i, tuman prokurori Shuhrat Xolmirzayev, tuman hokimi o‘rinbosari O.Bo‘tayev, Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi xodimlari: O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan irrigatorlar Z.X.Jo‘rabekov, U.Yu. Jumayev, N.Axmedov, QQBD – №12 vakili G‘.Otayorov, Samarqand “Vestnik” gazetasi muxbiri Anastasiya Pavlenko, Samarqand arxitektura-qurilish instituti Davlat attestatsiya hay’ati raisi Farxod Maxmudov, hay’at a’zolari Muxsin Xidirov, Mavjuda Xudayarova, F.Abdiraximov, Furqat Usmonqulov, Farida Suvonqulova, Dilorom Adilova, Vazira Hamdamova, Samarqand qishloq xo‘jalik instituti rektori, professor Tostemir Ostonaqulov, professor Pirnazar Davronov, O‘zbekiston, Qozog‘iston, Rossiya, Germaniya Fanlar Akademiyalari a’zosi, texnika fanlari doktori, professor O‘tkir Soatov, A.Ashurov boshchiligidagi Samarqand televideniyasi xodimlari, Samarqand arxitektura-qurilish instituti o‘qituvchisi, tarixshunos arxeolog Abdimannon Yorqulov, Jom va uning atrofidagi qishloqlar aholisi vakillari ishtirok etishdi.

Olimlar rahbarligida talabalar tomonidan bajarilgan loyihaning diplom himoyasi, qatnashchilarining katta e’tiroflariga, elning olqishiga sazovar bo‘ldi.

Jom qishlog‘ida kechayotgan jarayonlar to‘g‘risida Анастасия Павленконинг “Samarkandskiy Vestnik” gazetasining 2018-yil 10-fevral sonida “Как из сельской глубинки сделать город-сказку?”, “Доверие” gazetasining 2018-yil 16-fevral sonida “Сельская глубинка, или Как из села Джам сделать город-сказку?” (Olisdagi qishloq Yoxud qanday qilib Jom qishlog‘idan mo‘jiza shahar barpo etish mumkin?), shuningdek “Jamiyat” gazetasining 2018-yil 2-mart sonida professorlar

Pirnazar Davronov va Toshtemir Ostonaqulovlarning “Jomning to‘g‘onlari – suv mustaqilligi tomon qadam”, 2018-yil 4-aprelda “Ma’rifat” gazetasida “Asrlar oshgan innavatsion yechim (suv resurslaridan oqilona foydalanishda qo‘l keladi), 2018-yil 12-aprelda “Zarafshon” gazetasida “Jomga suv omborlari kerak” nomli maqolalari elon qilindi.

2018-yil 12-fevralda viloyat televideniyasida “Bunyodkorlik davr talabi” rukunida ko‘rsatuv berildi.

2018-yil 21-fevralda mazkur loyihani amalga oshirish borasida, E.Rahimov Nurobod tumani hokimi F.Zoirovga, 2018-yil 22-fevralda viloyat hokimiga murojaat va tegishli hujjatlarni topshirdi.

2018-yil 24-fevral kuni Jom qishlog‘ida viloyat hokimi T.I. Jo‘rayev raisligida Jom qishlog‘i hududini obodonlashtirish borasida “Obod qishloq” dasturini amalga oshirish bo‘yicha yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Yig‘ilishda viloyat hokimining o‘rinbosarlari, viloyat milliy xavfsizlik xizmati, viloyat prokurori, viloyat IIB, viloyat davlat soliq, moliya, uy joy communal xizmat ko‘rsatish, arxitektura-qurilish bosh boshqarmasi, markaziy bank va barcha tijorat banklari rahbarlari, shahar va tuman hokimlari, ularning qurilish bo‘yicha o‘rinbosarlari, shahar va tuman prokurorlari, ichki ishlar bo‘limlari boshliqlari, davlat-soliq inspeksiyasi rahbarlari, viloyat loyihalashtirish institutlari, viloyat tashkilotlari rahbarlari, tadbirkorlar vakillari, jamoat tashkilotlari hamda ommoviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Yig‘ilishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maslahatchisi, Prezident qabulxonasi boshlig‘i T.A.Xudoybergenov ishtirok etdi.

Yig‘ilishda bajarilishi lozim bo‘lgan ishlar, viloyat hokimligi yig‘ilishi Bayonida ko‘rsatilib, 2018-yil 28-fevraldagi, №03/3-119 son bilan rasmiylashtirildi.

Jom qishlog‘dagi “Obod qishloq dasturi” asosida bajarilgan ishlar hajmi, Nurobod tumani hokimining o‘rinbosari O.Bo‘tayev tomonidan tayyorlangan hisobotda o‘z aksini topgan. Mazko‘r hisobot, Pirnazar Davronovning “Jo‘mard elli Jom” kitobining 646-649-betlarida (Toshkent: “Zamin nashr”, 2020. 660 bet), Pernazar Davronov va Fotima Davronovalarning “Jom qishlog‘i maorifi” kitobining 9–14-betlarida berilgan (Toshkent: “Qamar media” nashriyoti, 2023. 250 bet).

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil 17-18-mart kunlari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida bergan topshiriqlari va Pastdarg‘om tumanida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan majlis bayonining 3-bandida quyidagi topshiriq berilgan.

Samarqand viloyati hokimligi (Jo‘rayev):

Mutasadi vazirliklar, idoralar, Nurobod tumani hokimligi (Zoirov) bilan birgalikda, Jizzax viloyatining Do‘stlik tumanidagi Manas qishlog‘ida amalga oshirilayotgan ishlar misolida Samarqand viloyatining Nurobod tumani Jom qishlog‘ida keng ko‘lamli qurilish va obodonlashtirish ishlarini belgilangan muddatlarda va sifatli amalga oshirish ta’minlansin;

Ushbu qaror  asosidagi “Obod qishloq dasturi” munosabati bilan Jom qishlog‘ini rivojlantirishga davlat byudjetidan 71 milliard so‘m mablag‘ kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-apreldagi selektr yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev shaxsan Samarqand viloyati hokimi E.O.Turdimovga Nurobod tumani Jom qishlog‘idagi Omondara MFYni obodonlashtirish bo‘yicha topshiriq berdi.

Prezident topshirig‘iga asosan Samarqand viloyati hokimligining 2022-yil 6-maydagi №02-01/716 sonli “Samarqand viloyati, Nurobod tumani, “Omondara” mahallasida obodonlashtirish bunyodkorlik ishlarini olib borish, hududdagi infra-

tuzilmani yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish hamda aholi bandligini ta'minlash bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi.

"Yo'l xaritasi"da belgilanga ishlar to'ligicha amalga oshirildi.

Cho'nqaymish, Anxazrat, Beshbarmoq, Yo'rg'abuloq va Omondara elektr qishloqlarida ta'minotini yaxshilash uchun 400 dona beton ustunlari o'rnatildi.

Omondara mahallasiga 5 dona TP transformator, 1200 ta beton ustunlar, 48 km uzunlikdagi elektr havo uzatish tarmoqlari, 1900-yilda qurulgan masjid-madrasada tashkil etilgan ARM-ga10 dona kitob javonlari va 5000 dona kitoblar yetkazib berildi.

Omondara MFY ning 4H-513 Chunqaymish qishlog'iga kirish yo'li 14 km bo'lib, uning 3,5 km qismi "Obod qishloq dasturi" tarkibida bajarilgan edi, qolgan 12,5 kilometriga to'liq asfalt yotqizildi.

Omondara MFY ning barcha ichki yo'llariga to'liq shag'al tosh yotqizildi. Ittifoq guzariga 1 dona suv inshooti va 3 km suv tarmoqlari qurildi. Shuningdek, Hafrin qishlog'ida 1 dona suv inshooti va 5 km suv tarmog'i barpo etildi.

Omondara MFY yangi binosi qurilib foydalanishga topshirildi.

Omondara MFY tarkibiga kiruvchi qishloqlar aholisiga 200 dona gaz bollonlari yetkazib berildi.

Kasb-hunarga o'qish istagi bo'lgan 10 nafar xotin-qizlar viloyat markazidagi ta'lim muassasalarida o'qitildi.

Aholining bandligini ta'minlash maqsadida, zarurati bo'lgan oilalarga 50 donadan tovuqlar tarqatildi.

Cho'nqaymish qishlog'idagi shifokorlik punkti (QShP) zamonaviy ta'mirlanib foydalanishga topshirildi.

Boshbuloq guzarida mahallaning tibbiyot tayanch punkti qurilib ishga tushurildi hamda aholi sog'ligi to'lig'icha ko'rikdan o'tkazildi, tegishli tavsiyalar va yordamlar berildi.

Boshbuloq guzaridagi 78-umumiy o‘tra ta’lim maktabi bilan uning stadioni orasidagi soy ustiga ko‘prik qurildi.

Samarqand biloyati hokimligi tomonidan ishlab chiqilgan “Yo‘l xarita”da belgilangan ishlarni amalga oshirishga, davlatning 30 milliard so‘m mablag‘i sarflandi.

Sunday qilib, Jom qishlog‘ida bunyodkorlik ishlarini olib borish uchun davlat byudjetining 2013-2017-yillarda 22,5, 2018-yilda “Obod qishloq” dasturi doirasida 71, 2022-yilda Omondara MFY uchun 30, jami 123,5 milliard so‘m mablag‘lari yunaltirildi.

Ma’lumki yetarli darajadagi suv ta’minoti bo‘lmas ekan, “Samarqand viloyat Nurobod tuman Jom qishlog‘ini zamonaviy agrosanoat majmualari asosida rivojlantirish konsepsiyasi”ni to‘lig‘icha amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu ma’noda, 2018-yil 27-mart kuni Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashidagi O‘zLiDeP deputatlik guruhining yig‘ilishida, professor P.Z.Davronovning konsepsiya bo‘yicha taqdimoti bo‘ldi. Deputatlar guruhi kosepsiyani ma’qullash bilan birgalikda Respublikamiz Prezidentining ko‘rsatmalaridan kelib chiqqan holda, to‘g‘onlarda kichik GESlar qurib, ulardan elektr energiya hosil qilib foydalanish fikrini bildirishdi.

O‘zLiDeP Samarqand viloyat kengashi va faollari tomonidan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasida Nurobod tumani Jom qishlog‘i va atrof yerlaridan samarali foydalanishni tashkil etish bo‘yicha, tabiiy suv zahiralarini yaratish va undan foydalanishni amalga oshirish bo‘yicha iqtisodiy loyihani amalga oshirish uchun chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Ushbu dasturga muvofiq tegishli takliflar tayyorlash maqsadida 2018-yil 10-aprel kuni Jom qishlog‘i hududida bunyod etilgan G‘ishtband va kelajakda qurilishi taxmin qilinayotgan to‘g‘onlarning o‘rinlari deputatlik ishchi guruhi tomonidan joyida o‘rganib chiqildi. Bunda “Zarafshon” irrigatsiya tizimlari havza bosh-

qarmasi, viloyat gidrometrologiya markazi, viloyat nasos stansiyalari, energetika va aloqa boshqarmasi, viloyat yer resurslari va davlat kadastri boshqarmasi, viloyat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyat iqtisodiyot bosh boshqarmasi,viloyat hokimligi moliya bosh boshqarmasi, viloyat arxitektura-qurulish nazorat inspeksiyasi, loyihalashtirish tashkilotlari, viloyat investitsiya boshqarmasi, viloyat elektr tarmoqlari OAJ, viloyat arxitektura-qurilish bosh boshqarmalaridan vakillar,  Samarqand DU, Samarqand QXI, Samarqand arxitektura-qurilish institute olimlari, qishloq faollari ishtirok etishdilar.

Yaqin kelajakda Jomning Tolli, Beshbuloq, Bachakalon, Suvlisoy, Boymat bobo, Quduqcha, Otqamar,Yakkatol, Avliyoli dasht, Kattasoy, Yoyilma, Yakkabuloq kabi qator hududlarida, shuningdek Anjirli va Sariko'l qishloqlarida tabiiy qor-yomg'ir suvlarini ushlab qolish maqsadida to'g'onlar qurish rejalashtirilgan va ushbu yo'nalishda ma'lum ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Yakkatol va Avliyoli dashtda to'g'onlari qurilsa, 1,5 million metr kub suv zaxirasi hosil qilinib, natijada 1500 gektar yerga oqizish yoki to'rt ming gektar atrofidagi yerda tomchilatib sug'orish dehqonchiligini amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Bunday bunyodkorlik ishlari qishloqning ko'p minglik aholisining suvga bo'lgan ehtiyojini to'la ta'minlaydi.

Katta-kichik to'g'onlar qurishdan hosil bo'ladigan mo'l suv, ravon va keng yo'llar, Jom ekektr nimstansiyasi kelajakda Jom shahrini bunyod etishga asos bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun tanlov asosida Jomga ichki va tashqi investorlarni jalb qilish, qishloqdagi imoratlarni shaharsozlik rejasiga mos ravishda tog' yonbag'irlarida qaytadan qurish, tog'lar oraliqlarida agrosanoat korxonalarini bunyod etish, qir-adirlar va unumdor yerlarda iqlimga mos dehqonchilikni yo'lga qo'yish, zamon talablari darajasidagi xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish, hududni yashil makonga aylantirish talab etiladi. Shunda Jom

qishlog‘i qir-adirlari, tog‘lari yashillikka burkangan, so‘lim, betakror, ko‘rkam, sayyohlar bop Jom shahriga aylanadi.

Hozirda Samarqand viloyati hokimligida taxminiy qiymati 11 milliard so‘m bo‘lgan Anjirli qishlog‘idagi suv inshoatini qurish rejalashtirilgan.

Agar taklif etilayotgan suv inshootlari barpo etilsa, aholi suv bilan ta’minlanadi, mavjud katta yer maydonlarda dehqonchilik va agrosanoat revojlanadi.

Tug‘onlardagi suvlarning yerga singishi tufayli ular yer osti bo‘ylab, bir-birlari bilan tutashadi, Jom aholisi foydalanadigan 48 ta buloqlardan, bugungi kunga qurub qolgan ko‘pchilik buloqlardan qaytadan suv chiqadi. Jom aholisining asosiy suv manbai bo‘lgan Omondara bulog‘i qadimgidanda ko‘proq suv bera boshlaydi, artezianlarning sersuvligi ortadi, barcha buloqlar suvlari ko‘payadi, yangi buloqlar ko‘z ochadi.

1960-yilargacha Omondara bulog‘ining suvi yoz oylarida ham Girdiqo‘rg‘om MFY hududining quyi qismiga, 6 km dan ortiq masofaga ariq orqali yitib borardi. Bugungi kunda ariq emas quvur orqali ham 2 kmga yetmayapdi.

1967-yilda sobiq O‘zbekiston 40 yilligi davlat xo‘jaligi direktori Otamurod Eshmurodov (Pastdarg‘om tumaniga qarashli Chandir qishlog‘idan) rahbarligida Kuchmenning qurulish brigadasi tomonidan Jomning katta Omondara bulog‘i suvining bir qismi quvurlarga olinib, aholi ariqdan suv ichmaydigan bo‘lishgandi.

Quvurlar uzunligi Jom soyi bo‘ylab qishlog‘ining quyi qismigacha 15 km, cho‘ldagi chorva ehtiyoji uchun Sonsuvloqqacha 15 km, jami 30 km edi. Bundan oldin Jom aholisining yarmi suvni hovuzlardan, qishloqning yuqori sharqiy qismi ariq va buloqlardan suv ichardi.

Hovuzlardagi suvlarning yerga singib ketishining oldini olish uchun ularga otlar oralatilgan. Omondara bulog‘i suvi oqizib

kelingan hovuzlar tubidagi loy tuproqlar otlar tuyoqlari bilan zichlangan.

XII asr Qoraxoniylar podsholigi davrida qurilgan G‘ishtband suv ombori uzoq davrlar o‘tishi, loyqa bosishi oqibatida tabbiiy ravishda ishdan chiqqan. Ushbu to‘g‘on o‘rnidan sharq tomon 20 metr yo‘qorida yangi G‘ishtband qurilishi 2015-yil 5-martda boshlanib, 17 oy ichida nihoyasiga yetkazildi.

To‘g‘on o‘zining shimoliy va sharqiy atrofidan olingan tog‘ jinslaridan barpo etildi.

To‘g‘onning oldi (sharq) va orqa (g‘arb) qismiga negizidan boshlab 1,5 m qalinlikdagi xarsang toshlar yo‘qori tomon qiyalatib to‘kib chiqildi. Bu toshlar orasidan o‘tgan sublar tog‘ jinslariga singib to‘g‘onning mustahkamligini ta’minlaydi.

Uzunligi 83,5 m, diametri 750 mm, qalinligi 5 mm bo‘lgan quvur, balandligi 1,5 m temir-beton yostiq ustiga o‘rnatilib, quvurning atrofi ham temir-beton bilan mustahkamlandi. Quvurning suv kirish qismi atrofi qiyalatib to‘rtburchak shaklda ko‘tarilib baland o‘ra yasaldi va uning ustiga quvurning keraksiz jinslar bilan tiqilib qilishidan himoyalovchi temir to‘siq-panjara ochilib-yopiladigan qilib o‘rnatildi.

To‘g‘onning balandligi 20 m, ustki qismining eni 4 m, bo‘yi (ikki tog‘ Bo‘lakjog‘ol va Qorachog‘ol oralig‘i) 102 m dan iborat bo‘lib, suv sig‘imi taxminiy 450 ming metr kubni tashkil qiladigan bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining 2016-yil 22-iyuldagi №135-sonli buyrug‘i bilan tayinlangan Zarafshon irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i A.Jumayev raisligidagi 16 kishidan iborat davlat qabul qilish hay‘atining qarori bilan umumiy qiymati 3 milliard 347 million 823 so‘m bo‘lgan, qurilishi tugallangan G‘ishtband to‘g‘oni ob‘yikti foydalanish uchun qabul qilindui.

2016-yil 8-avgustda, 28 ming aholiga ega bo‘lgan Jom va uning atrofidagi ellarning vakillari hamda Toshkent, Samarqand va Nuroboddan kelgan mehmonlar ishtirokida G‘ishtband suv omborining ochilish tantanalari bo‘lib o‘tdui.

G‘ishtband suv omborining havzasi, ya‘ni unga suv oqib keladigan yer maydoni 10 000 gektardan ortiq. Sel toshqinlari kuzatilmagan 2017-yilning qish va bahor oylarida G‘ishtband suv ombori 3 marta to‘lib, inshoot qurilishi talablaridan kelib chiqqan holda, ma‘lum muddatlarda to‘plangan suv chiqarilib turildi. Bu holat G‘ishtbandga rejalashtirilganidan ortiq suv to‘planishini isbotladi. Agar G‘ishtband to‘g‘oni balandligi yana 10 metr ko‘tarilib 30 m balandlikda qurilsa, 1 million metr kub suv zaxirasi hosil qilinib, 1000 gektar yer maydonini oqizib. 3000 gektar yer maydonini tomchilatib so‘g‘orish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Afsuski, 2016-yilning yoz faslida davlat qabul qilish hay‘atini tomonidan G‘ishtband to‘g‘oni ob‘yekti foydalanishga yaroqli deb topilgach, 2017-yilning qish-bahor oylarida to‘plangan suvning bir qismi, noto‘g‘ri loyihalashtirish tufayli to‘g‘onning tagidan chiqib keta boshladi. Vaholanki, qadim XII asrda qurilgan to‘g‘onlarda bunday noxush xodisalar kuzatilmagan.

To‘g‘on loyihalashtirishda xato-kamchiliklar bo‘lishi, monopoliya, korrupsiya, o‘g‘likka yo‘l qo‘yilishi also mumkin emas. Mamlakatimiz uchun Sardoba to‘g‘onida yuz bergan fojialar yetarli. Bundan tashqari, har qanday buyumdan foydalanish muddati bor. Shu jumladan to‘g‘onlar ham belgilangan muddatlardan kechiktirmasdan ta‘mirlanishi zarur, aks holda katta fojialarga olib keladi.

Ushbu soha yunalishda ham jahon tajribasi yetarli. Masalan, AQShning Taum Sauk nomli stansiyasi nasos orqali suv olib elektr energiyasi hosil qilishda dunyoga mashhur, bu joyda ta-

biiy suv oqimi yo‘q. Bu suv ombori yerning teks joyda bunyod etilgan bo‘lib, unga 80 km uzoqlikdagi Missisipi daryosining eng katta irmoqlaridan biri Missuridan nasoslar orqali suv olinadi va foydalanib bo‘lingan suv yana omborga nasoslar orqali qayta tashlanadi.

Taum Sauk stantsiyasining qurilishi 1960 yilda boshlangan va u 1963 yildan ishlay boshlagan. Ikki turbinali nasos 175 megavatt energiya ishlab chiqarishga qodir. Ular 1999 yilda har biri 225 megavattgacha yangilandi. 2005-yilda, yuqori suv ombori halokatli avariyaga uchraganida, stantsiya yopilishi kerak edi, biroq foydalanish to‘xtatilmadi. Natijada 12 daqiqa ichida 4 million kubometr suv 7 metr balandlikda otilib chiqib qora daryo hosil qildi. Suv oqimi Taum Sauk Milliy parkiga kirib, bir qator park inshootlarini vayron qildi va uchta yosh bolani qattiq jarohatladi.

Bu ulkan inshoot to‘rt yillik qayta tiklashdan so‘ng ishga tushurildi va suv bosimini kamaytirish maqsadida to‘qqizta kamera rezervuarlarga ajratib quruldi. Ularning ustida 24 soatlik sutka davomida avtomobillarda kuzatuv olib boriladi va turistlar sayohat qilishadi.

Jom va uning atrofidagi qishloqlar hududlarida qurulishi rejalashtirilaytgan to‘g‘onlar, aholi yashash joylarining yo‘qori qismidagi tog‘larda barpo etiladi. Birgina, suv sig‘imi 1 million metr kub bo‘lgan G‘ishtband to‘g‘onida yemirilish yuz bersa, uning quyi qismida joylashgan aholi uy-joylari katta zarar ko‘radi. To‘g‘onlar qurushda yuz berishi mumkin bo‘gan fojialarning oldini olishda AQShning Taum Sauk fojeasini va uning oldini olish tajribasini e‘tiborga olish zarur.

Sel suvlari tutib qolinsa – rohat farog‘at, to‘g‘oni buzulsa – ofat.

